
TOSHLOQDA IKKI YUZDAN ORTIQ QORBOBOLAR YURTDOSHLARIMIZGA YANGI YIL SHUKUHI VA BAYRAM KAYFIYATINI ULASHDI.

Toshloq tumanidagi Alisher Navoiy ko'chasidan harakatlangan 200 ga yaqin Qorbobo va Qorqizlar tuman markazida o'rnatilgan 15 metrlik archa tomon harakatlandilar.

1 kilometr masofa bosib o'tgan Qorbobolar yo'l davomida bolajonlarga turli shirinliklarni ulashdilar. Archa atrofida tashkil etilgan musiqiy chiqishlar nafaqat bolajonlar, balki ularning ota-onasi, bobo, buvijonlariga ham kayfiyat ulasha oldi.

Qorbobolarning navbatdagi manzili tuman Tibbiyot birlashmasining bolalar bo'limi bo'ldi. Bu yerda davolanayotgan bemor bolalar holidan xabar olindi, ularga sovg'alar ulashildi. Shuningdek hududdagi 26 DMTT tarbiyalanuvchilari, "Suv boshi" MFY hududidagi ko'p qavatli uylarda yashovchi bolajonlar hamda imkoniyati cheklangan shaxslar xolida xabar olindi.

2024-12-27 18:50:32